

**MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI UCHUN SAVODXONLIKKA
O'RGATISH MASHG'ULOTLARIDA „A” HARF-TOVUSHINI O'RGATISH
METODIKASI**

PhD. Rahmatova Fotima G'aniyevna

Samarqand davlat universiteti O'zbekiston -Fillandiya pedagogika instituti maktagacha ta'lif fakulteti maktabgacha ta'lif pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasи mudiri , „Ilm sari ilk qadam” talabalar Ilmiy jamiyatи raisi

Isomova Farog'at Tojiddin qizi

Samarqand davlat universiteti O'zbekiston -Fillandiya pedagogika instituti 1- bosqich magistranti , „Ilm sari ilk qadam” talabalar Ilmiy jamiyatи a'zosi

Qozoqova Kumush Murod qizi

Samarqand davlat universiteti O'zbekiston -Fillandiya pedagogika instituti 1- bosqich talabasi , „Ilm sari ilk qadam” talabalar Ilmiy jamiyatи a'zosi

Anotatsiya:

Maqolada MTIлari tarbiyalanuvchilarini mакtab ta'limga tayyorlashda savodxonlik mashg'ulotlari va ushbu mashg'ulotlarning bolalar rivojlanishidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar : tovush, harf, nutq, bilim, ko'nikma, malaka, obrazli bayon qilish ,maktab ta'limga tayyorlash, faoliyat ishlanma

Hozirgi rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ta'lif sohasi islohotlar obyektiga aylanib ulgurdi.O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu ta'lif va tarbiya borasida quyidagicha fikr bildirdi: “Yosh avlodni tarbiyalash, kelajak hayotga tayyorlash o'z istiqboli, taraqqiyoti, ertangi kuni xususida qayg'uradigan har qanday mamlakat uchun eng ustuvor vazifalardan biri sanaladi”. Yosh avlodni tarbiyalash va sifatli ta'lif berish aynan uzuksiz ta'lif tizimining maktabgacha ta'lif bosqichidan boshlanadi.Maktabgacha ta'lif tizimini rivojlantirish borasida ko'plab qonun va qarorlar qabul qilinib ,ularning ijrosi amalga oshirilmoqda. „Maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” ning ham asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning Maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi qamrovini 2030-yilga borib 80,8 foizga yekta zish ,bolalarni har tomonlama barkamol ,yetuk shaxs bo'lib yetishishlarini taminlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lif va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish maqsadida maktabgacha ta'lif vazirligi tomonidan o'quv dasturlari ham ishlab chiqilgan.Ulardan biri „Ilm yo'li” variativ dasturi bo'lib , asosan maktabga tayyorlov (6 -7 yoshli bolalarning maktabga majburiy bir yillik tayyorlov) guruhlarida qo'llaniladi.Bu dastur bolalarni har tomonlama mакtab ta'limga tayyorlashni o'z oldiga vazifa qilib olgan.Sohalar bo'yicha

oladigan bo'lsak savodxonlikka o'rgatish mashg'ulotlari bolalarni aynan o'zbek tili alifbosi bilan tanishtiradi. Bu esa bolaning maktabda ta'lif olishi uchun zamin yaratadi.Ushbu o'rinda biz namuna sifatida savodxonlik mashg'ulotini o'tkazish uchun faoliyat ishlanmasini keltirib o'tamiz.

Mashg'ulot ishlanma

Mavzu: "A a" harf-tovushi bilan tanishtirish

Maqsad:

- a) ta'lifiy: tarbiyalanuvchilar unli harflar guruhibiga kiruvchi "Aa" harf- tovushi bilan tanishadilar;
- b) tarbiyaviy : tarbiyalanuvchilar bir-birlarini do'stona qo'llab-quvvatlashga odatlanadilar;
- d) rivojlantiruvchi : mayda qo'l matorikasini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar:

"Laylakvoy" media mahsuloti, A harfli kartochkalar, rasmiy alifbo, kitob maketi , sanoq cho'plari, kesma harflar, ish daftari, rangli qalam,A harf- tovushi ishtiroy etgan buymlar suratlari .

Mashg'ulot metodi:

"Tabassum hadysi" " muzyorar mashqi , suhbat, amaliy ish , tushuntirish, „Kuyla" metodi

Mashg'ulotning borishi:

1.Tashkiliy qism. 3-5 daqiqa

Muzyorar mashqi : "Tabassum hadysi"

Tarbiyachi guruh tarbiyalanuvchilarini doira bo'lib turishlarini so'raydi. Bolalar qo'llarini ushlab turadilar , yonidagi o'rtog'iga qarab tabassum hadya etadilar . Shu tarzda mashq davom ettiriladi. Mashqdan so'ng bolalar o'z joylarini egallaydilar.

2. Asosiy qism. 20 daqiqa

"Laylakvoy" media mahsulotidan ekranda "A a" tovushi bor ayiq tasviri ko'rsatiladi, tarbiyalanuvchilar uning nomini so'zni aytadilar. Tarbiyachi "A a" tovushini cho'zib (a-a-a-ayiq) aytadi va qaysi tovush cho'zib aytilayotganini tarbiyalanuvchilardan so'raydi . Tarbiyalanuvchilar "A a" harf-tovushini aytgach, tarbiyachi uning xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.

Tarbiyachiga eslatma: "A a" tovushi unli tovush bo'lib talaffuz qilinganda cho'zib aytildi. Talaffuz vaqtida o'pkadan chiqayotgan havo hech qanday to'siqqa uchramaydi.

Tarbiyalanuvchilar bilan birlashtirilishda "A a" tovushli so'zlarga misollar topiladi . Shundan so'ng "A a" harfli "Laylakvoy" media mahsulotidan ko'rsatiladi va quyidagi amaliy ish bajariladi.

Amaliy ish

Tarbiyachi bolalarga katta bosma "A a" harfini doskada quyidagicha chizib ko'rsatib beradi. Ikkitayloqchaning yuqorigi uchlari birlashtirilib, ularning o'rtafiga belbog'cha qilib uchinchi tayoqcha chiziladi. Tarbiyachi ko'rsatib bergen namunaga qarab bolalar sanoq

cho'plaridan katta "A a" harfini yasaydilar. Ish yakunida tarbiyachi bolalarga "A a" harfi haqida quyidagi quvnoq she'rni aytib berishi mumkin.

Alifboning boshi- "A a"

Uni hamma biladi,

Mashhurlikda kerilib,

Oyoqni keng qoyadi.

Mana ikkita ustuncha:

O'rtasida belbog'cha

Bu harfni bilding-a?

Ro'parangda turar "A a"

"A a" harfi kitobga joylab qo'yiladi. (kitob maketiga "A a" kesma harfi yopishtiriladi.)

Quvnoq daqiqa

Bolalar she'r so'zlariga mos harakatlarni bajaradilar.

Ayiq polvon o'rmonda

Yemish izlab yuradi.

Uxlaganda tushida

Har kun asal ko'radi.

„Kuyla“ metodi: Tarbiyachi monitorda asal arining tasviri tushurilgan suratni namoyish etadi va suratga qarab bolalarga quyidagi qo'shiqbirgalikda obrazli ijro etishadi.

Bol arining hech bekori bo'lmaydi, bo'lmaydi

Bol arining hech bekori bo'lmaydi, bo'lmaydi

Ishlashadi bol arining bolalari, xolalari

Harakatda bo'lishadi bol arining bolalari

Bol arilar vazifasin bajarishar bora ishlar

Bol arining hech bekori bo'lmaydi, bo'lmaydi

Bol arining hech bekori bo'lmaydi, bo'lmaydi

Vizz.... Vizz....

Tarbiyachi harflarning uch xususiyati va tovushlarning ikki xususiyati haqida ma'lumot beradi.

Tarbiyachiga eslatma: harflar o'qiladi, yoziladi va ularni ko'rish mumkin. Tovushlar eshitiladi va talaffuz qilinadi. Harflar bosh va kichik shaklda bo'ladi.

Amaliy mashq

Tarbiyachi bir nechta so'zni bo'g'lnlarga bo'lib(a-na, o-na, olma, non, kapalak, uy, ari) aytadi.

Bolalar aytilgan so'zlar bo'g'lnlarida "A a" unli ishtirot etgan bo'lsa, "A a" harfli kartochkani baland ko'taradilar.

Ish daftari bilan ishslash

Tarbiyachi ish daftarida berilgan topshiriqlarni tushuntiradi, bolalar vazifalarni mustaqil bajaradilar.

Topshiriqlar:

1. Namunaga qarab “A a” harfining bosma shaklini yozing.
2. “A a” harfi so’zning boshida kelgan rasmlarni chiziq bilan birlashtiring.
3. So’zlarni bo’g’inlarga bo’ling. “A a” tovush o’rnini qizil rangga bo’yang.

Yakuniy qism: 5 daqiqa

Tarbiyachi bolalar bilan yakunlovchi suhbat olib boradi:

- Mashg’ulotda sizga nimalar yoqdi?
- “A a” tovushi haqida nimalarni bilib oldingiz? (unli tovush, uni cho’zib aytamiz.”Aa” tovushini eshitamiz va talaffuz qilamiz)
- Bosh “Aa” harfini nechta tayoqchadan hosil qildingiz? (uchta tayoqcha)
- Harflar qanday shaklda bo’ladi?(harflar bosh va kichik shakllarda bo’ladi).

Savodxonlikka o’rgatish mashg’ulotlari bolalarning nutqining rivojlantirishda,lu’gat boyligini oshirishda ,tilni gramatik jihatlarini o’rganishda muhim ahamiyatga ega.Bolalar ushbu davrga kelib kattalar bilan o’zaro kamunikativ aloqa o’rnatishadi.Maktabga tayyorlov yoshdagি bolalarning nutq, muloqot ,o’qish va yozish malakalarini shakllantirishda tarbiyachilar o’z kasbiy mahoratlari va „Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat talim standartlari ”asosida savodga o’rgatish ,Badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg’ulotlarini tashkil etishlari lozim.Maqlola keltirilgan ishlanma ham savodga o’rgatish mashg’ulotlari uchun qo’llaniladi. Har bir bolada nutqning o’ziga xos sifatlarini tarbiyalash, kelgusi hayotida, yani mактабда, o’quv yurtlarida ta’lim olishda, mustaqil mehnat faoliyatida jamoa, jamiyat orasida o’z fikrlarini to’liq va tushunarli qilib bayon etishda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ”Ilm yo‘li” variativ dastur/Mualliflar:I.V.Grosheva, Ye.F.Say, S.S.Mirjalilova, N.I.Medvedova.-Toshkent: “Sano-standart”, 2020.-16 b.
2. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim standartlari” Toshkent -2020.
3. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi.O’quvqo’llanma/ Sh.Fayzullayev.Samarqand-2020.
4. Bolala nutqinio’stirish“o’quv- uslubiy qo’llanma S.S.Avezov, M.B.Sharipova, Sh.Sh.Nizomova,N.N.Hamroyeva.Buxoro-2019
5. Iqtidorli o’quvchilar bilan ishlash texnologiyasini takomillashtirish” dissertatsiya ishi. F.Rahmatova Samarqand-2020
6. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda nutq o’stirish mashg’ulotlarining ahamiyati,, ilmiy maqola F.Isomova.